

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

**BOKIYEV KOMILXON UMARXONOVICH**

**HUVAYDONING “ROHATI DIL” ASARI MATNIY TADQIQI**

**10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology  
Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Bokiyev Komilxon Umarxonovich**

“Rohati dil” dostoni matniy tadqiqi .....

**Komilkhon Umarkhanovich Bakiyev**

Textual Analysis of the Epic “Rohati Dil” .....

**Бакиев Комилхон Умарханович**

Текстологическое исследование дастана “Рохати дил” .....

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ .....

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

**BOKIYEV KOMILXON UMARXONOVICH**

**HUVAYDONING “ROHATI DIL” ASARI MATNIY TADQIQI**

**10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2025.3.PhD/Fil2685 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rahmonov Nasimxon Asqarovich,**

filologiya fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabbarov Nurboy Abdulhakimovich**

filologiya fanlari doktori, professor.

**Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.S.Sirojiddinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., akademik

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**M.X.Abdulxayirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunoslik va matnshunosligida sharq mutafakkir shoirlari ijodi va adabiy merosini badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotining o'ziga xos manbalarini ilmiy jihatdan ochib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy merosning xalqchil badiiy namunalarini, buyuk shaxslar ijodi, ular yaratgan asarlarni davr ruhi va talablaridan kelib chiqib o'rganish, ularni amaliyotga tadbiq etish doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu esa dunyo tasavvufiy va madaniy-ma'rifiy hayotiga sezilarli ta'sir etuvchi umumbashariy qadriyatlar, umuminsoniy obrazlar mutasavvif shoir Xojanazar Huvaydo ijodiyotida o'zining mazmundor va yorqin ifodasini topganligini aniqlash zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda.

Mustaqillik yillarida va undan oldin respublikamizda Xojanazar Huvaydo ijodi va uning lirik merosi tadqiqi borasida ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, shoir ijodining o'rganilmagan, o'z yechimini kutayotgan jihatlar, xususan, shoir asarlarini qo'lyozma va toshbosma nusxalarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etish masalasi hali-hanuz ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ – 2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ – 2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 24-may kuni qabul qilingan PQ – 2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ – 4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 10-fevraldagi PQ – 126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 6-noyabrda 891-son “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo'lida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qila oladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Mutasavvif Xojanazar Huvaydo ijodini tadqiq etishda rus sharqshunoslaridan A.N.Samoylovich, P.A.Falev, M.F.Gavrilov,

N.P.Ostroumov, nemis sharqshunosi M.Xartmann<sup>1</sup> bir qator risola va ilmiy maqolalarini chop ettirgan, M.Xartmann Berlinda “Huvaydoning chig‘atoycha devoni” asaridan o‘nta g‘azalini saralab olib tahlil qilgan. Rus sharqshunosi M.F.Gavrilov Toshkentda rus tilida chop etilgan “O‘rta osiyolik shoir va so‘fiy Huvaydo”<sup>2</sup> risolasida shoirning tarjimai holi, ijodiyotini o‘zi yashagan davr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish bilan birga, uning faoliyatiga doir manbalarga ham qisman to‘xtalib o‘tgan.

1959-yilda M.Afzalov “Huvaydo va Mashrab” ijodini atroflicha o‘rganaylik” ilmiy maqolasi orqali o‘zbek adabiyotshunosligi e‘tiborini Huvaydo ijodiy faoliyatini o‘rganishga qaratdi<sup>3</sup>. Muallif shu choqqacha shoir Huvaydo ijodi chuqur va atroflicha o‘rganilmaganligini ta’kidladi.

T.Jalolov “Samar Bonu”<sup>4</sup> asarida Huvaydo hayoti bo‘yicha ma’lumotlarga ham qisman to‘xtalgan. Shoir hayoti va ijodini o‘rganishda V.Zohidov tomonidan amalga oshirilgan ishlar ham muhim qadamlardan biri bo‘ldi<sup>5</sup>. Yana xuddi shunday muhim tadqiqotlar sirasiga A.Hudoyberdiyev, Q.Ro‘zmatzoda<sup>6</sup>, N.Jumaxo‘ja<sup>7</sup>, I.Adizova<sup>8</sup> va boshqalarning mavzu yuzasidan olib borgan muhim tadqiqotlarini kiritish mumkin. Lekin shoir hayoti va adabiy merosining qo‘lyozma va toshbosma manbalari hali-hanuz monografik jihatdan ilmiy tadqiq etilmagan.

Mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq mavzu ilk bor monografik yo‘sinda o‘rganilmoqda.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi yangi ekspozitsiyasi, xususan, “XVI – XIX asrlar o‘zbek adabiyoti” ekspozitsion-tematik rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Xojanazar Huvaydo asarlari, xususan, “Rohati dil” dostoni qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini tadqiq etish orqali uning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rnini ilmiy asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Xojanazar Huvaydo tarjimai holi yuzasidan ilmiy jamoatchilikka qimmatli ma’lumotlar taqdim eta oladigan adabiy manbalarni jamlash;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozma va 12 ta toshbosma hamda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2 ta qo‘lyozma va 1 ta toshbosma nusxalarining matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish, ilmiy tavsif qilish;

---

<sup>1</sup> Hartmann M. Der caghataische Divan Huwedas // Mittheilligen des Seminars fu Orientalischen zu Berlin. – jahrgang V.Berlin, 1902. – B. 44 .

<sup>2</sup> Гаврилов М. Среднеазиатский поэт и суфий Хувайдо. – Toshkent, 1927. – С. 56.

<sup>3</sup> Afzalov M. Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o‘rganaylik. // O‘zbekiston madaniyati. – Toshkent, 1959. – 49-son. – B. 320.

<sup>4</sup> To‘xtasin J. Samar Bonu. – Toshkent, 1963. – B. 86.

<sup>5</sup> Zohidov V. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1975. – B. 87.

<sup>6</sup> Qodirqul R. Xojanazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII – XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidadagi o‘rni. Falsafa fan. d-ri...diss. – Toshkent, 2020. – B. 136.

<sup>7</sup> Jumaxo‘ja N. Huvaydo tasavvufiy she‘rlarida falsafiy-badiiy talqin. // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1998. – 4-son. – B. 34.

<sup>8</sup> Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan , 2006. – B. 120.

shoir ijodi, xususan, “Rohati dil” dostonining qo‘lyozma va nashr nusxalarini qiyosiy tahlil etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida shoir ijodiga bevosita taalluqli bo‘lgan O‘zR FA ShI fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozma, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2ta qo‘lyozma va 1ta toshbosma nusxalar, Buxoro xalq amaliy san‘at muzeyi fondida 4 ta qo‘lyozma hamda shoir asarlarining mavjud nashr variantlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** shoirning “Rohati dil” dostoni, manzuma ko‘rinishida taqdim etilgan o‘ttiz bobdan iborat shar‘iy masala hamda ularga ilova tarzida keltirilgan she‘riy hikoyatlar talqini, matniy tadqiqi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda avtobiografik, sistem-struktural metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Huvaydo biografiyasi va ijodiga oid manbalar tekshirilib, uning hayotiga oid mavjud ma‘lumotlarga aniqlik kiritilgan, “Rohati dil” asarining asliyat va nashr variantlari qiyosi natijasida xato o‘qilgan 100 dan ortiq so‘zlar hamda o‘zgartirilgan misralar qo‘lyozma nusxalar asosida tiklangan;

Xojanazar Huvaydo “Devon”ining 2005-yildagi Toshkentda nashr etilgan versiyasi hamda 2017-yilda qayta chop etilib, to‘ldirilgan nashri bilan shoir ijodi bo‘yicha ma‘lumot beruvchi birlamchi manbalar: qo‘lyozma va toshbosmalar qiyosiy taqqoslanishi natijasida nashrlarda mavjud bo‘lmagan bir munojot-g‘azal va 48 misradan iborat she‘r aniqlangan;

“Rohati dil” dostonining O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozma hamda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2 ta qo‘lyozma va 1ta toshbosma nusxalarning har biri batafsil monografik tasnif qilinib, ilmiy asoslangan;

“Rohati dil” asarining toshbosma nusxalari va nashr variantlari o‘zaro qiyoslanishi natijasida hali nashrda mavjud bo‘lmagan asar mohiyatini yanada teran yoritishga xizmat qiluvchi bir qancha baytlar aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Huvaydo biografiyasiga oid manbalar tadqiqi natijasida shoir hayotiga doir hali hanuz ochiq qolmagan ayrim masalalarga aniqlik kiritilgan;

ijodkor adabiy merosi manbalarining ilmiy tavsifi va qiyosiy tadqiqi amalga oshirilgan va shoir nazmiy merosining umumiy ko‘lami aniqlangan;

Huvaydoning yangi aniqlangan she‘rlari talqini natijasida shoirning adabiy-estetik dunyosi, ijtimoiy voqelikka munosabati masalalari yoritilgan;

“Rohati dil” dostonining O‘zR FA ShI fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozma, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2 ta qo‘lyozma va 1ta toshbosma nusxalarning batafsil monografik tavsifi hamda matniy-qiyosiy tadqiqi natijasida asliyatga muvofiq va muallif variantiga yaqin matnlari tiklangan;

“Rohati dil” dostonining nashr nusxalari tahlil qilinib, uar orasidagi matniy tafovutlar ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning avtobiografik, sistem-struktural badiiy tahlil usullari orqali

asoslanganligi, ishonchli tarixiy-adabiy manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi aniqlangan adabiy materiallarning ilk bor ilmiy tahlilga tortilishi, ularning milliy istiqloq g'oyalari bilan bog'liqlikda o'rganilishi, "Rohati dil"ning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi doirasida ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, qo'lga kiritilgan materiallar oliy ta'lim muassasalarining o'zbek filologiyasi fakultetlarida o'tiladigan matnshunoslik va o'zbek adabiyoti tarixiga doir fanlarning o'quv majmualarini tuzishda adabiy manba vazifasini bajara olishi, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va o'rta-maxsus o'quv bilim yurtlarida o'quvchilarga adabiyot fani yuzasidan olib boriladigan darslarda yordamchi qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi.** Huvaydoning "Rohati dil" asari matni tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Huvaydo biografiyasi va ijodiga oid manbalar tekshirilib, uning hayotiga oid mavjud ma'lumotlarga aniqlik kiritilgan, "Rohati dil" asarining asliyat va nashr variantlari qiyosi natijasida xato o'qilgan 100 dan ortiq so'zlar hamda o'zgartirilgan misralar qo'lyozma nusxalar asosida tiklanganiga, "Rohati dil" asari orqali XIII asrgacha bo'lgan manbalarning keyingi asrlarda vujudga kelgan mumtoz asarlarga ta'siri masalalariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda amalga oshirilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli davlat granti asosidagi ilmiy-amaliy loyihada samarali foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 13-sentyabrgi 04/1-2405 -son ma'lumotnomasi). Natijada, ijodkorning badiiy san'atlardan va obrazlardan foydalanish mahorati, badiiy tasviriy vositalarda shoir ruhiyatining mutanosibliigi masalasiga oid xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

Xojanazar Huvaydo "Devon"ining 2005-yildagi Toshkentda nashr etilgan versiyasi hamda 2017-yilda qayta chop etilgan to'ldirilgan nashri bilan shoir ijodi bo'yicha ma'lumot beruvchi birlamchi manbalar: qo'lyozma va toshbosmalar qiyosiy taqqoslanishi natijasida nashrlarda mavjud bo'lmagan bir munojot-g'azal va 48 misradan iborat she'r aniqlanganiga, Huvaydo lirikasida obraz va ramzlar tizimi aniqlanib, shoirning obraz yaratish mahorati asoslangani, obrazlarda ijodkor ruhiyati uyg'unligi va o'zbek xalqi adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 21-iyundagi 01/4-2655-son ma'lumotnomasi). Natijada, Xo'jamnazar Huvaydo ijodi mumtoz adabiyotimizning islomiy sarchashmalari va

o'zigacha bo'lgan barcha diniy qo'lyozma manbalar, xususan, VII-VIII asrlardan boshlab to XIII asrgacha yaratilgan mo'tabar manbalardan samarali foydalana olganligi, qolaversa, XIII asrgacha bo'lgan manbalarning keyingi asrlarda vujudga kelgan mumtoz asarlarga ta'siri masalalariga oid ilmiy materiallardan elektron platforma materiallarini tayyorlashda foydalanilgan;

“Rohati dil” dostonining O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozma hamda O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2 ta qo‘lyozma va 1 ta toshbosma nusxalarining monografik tasnifiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021 – 2023-yillarda amalga oshirilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli davlat granti asosidagi ilmiy-amaliy loyihada samarali foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 13-sentyabrgi 04/1-2405 -son ma'lumotnomasi). Natijada, “Rohati dil” dostonining O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 14 ta qo‘lyozmasi va O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyidagi 2 ta qo‘lyozma va 1 ta toshbosma nusxalarining monografik tasnifiga oid xulosalar elektron platforma materiallarini qo‘lyozma manbalar haqidagi ma’lumotlar bilan boyitishga asos bo‘lgan;

“Rohati dil” asarining toshbosma nusxalari va nashr variantlari o‘zaro qiyoslanishi natijasida hali nashrda mavjud bo‘lmagan asar mohiyatini yanada teran yoritishga xizmat qiluvchi bir qancha baytlar tahliliga oid chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 21-iyundagi 01/4-2655-son ma'lumotnomasi). Natijada, “Rohati dil” asarining toshbosma nusxalari va nashr variantlari qiyosi natijasida mavjud nashrlarda ucramaydigan bir qancha baytlar tahlili masalalariga oid ilmiy materiallardan elektron platforma materiallarini tayyorlashda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta, jumladan, xorijiy jurnalda 2 ta, respublika jurnallarida 5 ta, shuningdek, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika konfrensiya to‘plamlarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining

ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **“Xojanazar Huvaydo va uning adabiy merosi manbalari”** nomli ilk bobining birinchi fasli **“Xojanazar Huvaydo tarjimai holi manbalari”** deb nomlanadi.

Huvaydoning tarjimai holini tiklashda bir qator yondosh manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, Noseh Chimyoniy tomonidan yozilgan “Tarixi vafoti hazrat Eshon Huvaydo” – Huvaydoning shogirdi Noseh Chimyoniy vafotiga bag‘ishlab yozgan bu asar, shubhasiz, Huvaydoning hayoti va vafoti haqida qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi<sup>9</sup>.

O.Sharafiddinov tomonidan Toshkentda 1945-yilda nashr qilingan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning ikkinchi jildi<sup>10</sup> o‘zbek adabiyotining ulkan adiblari va shoirlarining asarlarini o‘z ichiga olgan muhim manba bo‘lib, o‘sha davrdagi adabiy muhit va ijodning boyligini namoyon qiladi.

Huvaydoning vafoti o‘zining tarixi, muhim ma‘lumotlar va ishonchli manbalar jihatidan Sadoiy tomonidan ilgari surilgan ilmiy fakt ham muhim ahamiyatga ega.

Qolur armon, mabodo ko‘nglimizda,

Ki “tarixsiz” vafoti bo‘lsa mastur.

Shabi dushanbai mohi muharram,

Vafoti va‘da Haqdin bo‘ldi mag‘fur.

Qayu vaqtu qayu soatda erdi,

Qilay tarixlarin olamga mashhur.

Chu hijrat erdi ming-u ikki yuzda,

Gunah daf‘ig‘a loyiq bo‘ldi mahjur.

Fikrimizcha, “Huvaydoning tug‘ilgan yili noma‘lum” degan mulohazani aytishdan ko‘ra, hozirgacha qilingan va e‘lon bo‘lgan barcha ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda, Huvaydodan keyin o‘tgan olti avlodning har biri o‘rtacha 71–72 yil umr ko‘rganligini inobatga olsak, shoir taxminan 1704-yili Chimyon qishlog‘ida tug‘ilgan, degan xulosaga kelamiz<sup>11</sup>.

Huvaydoning shogirdi Noseh :

*Xirad ustodi ta‘rix vafotin*

*Bitibdur “g‘oyib o‘ldi qutbi hodiy”* – ya‘ni Huvaydoning vafot yili hijriy 1195 – (milodiy 1780) yil ekanligini aniq ko‘rsatgan<sup>12</sup>.

Shoir ustozining vafotiga bag‘ishlangan she‘rini uning o‘limidan uzoq vaqt o‘tganidan keyin – o‘ttiz bir yildan so‘ng yozgan. U ustozni vafoti sanasi aniq va ishonchli keltirganligining bir qator sabablari bor. Jumladan, Sadoiy Huvaydoning vafotini o‘zining o‘g‘li kasallanib, vafot etgani bilan birga tasvirlaydi. O‘g‘lini davolash uchun ko‘plab harakatlar qilgan bo‘lsa-da, uni ajalga qarshi qutqara

<sup>9</sup> Носех Чимёний. Тарихи вафоти ҳазрат Эшон Хувайдо наввароллоху таоло марқадаху маржаҳу. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 268.

<sup>10</sup> Шарафиддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Том II. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б. 207.

<sup>11</sup> Hoshimxonov M. Mashrabi mo‘tabar o‘zum. – Toshkent: Noshirlik yog‘dusi, 2019. – B. 86.

<sup>12</sup> Xojanazar Huvaydo. Devon. – B. 5.

olmaydi<sup>13</sup>. Bu hodisa Sadoiy uchun katta qayg‘u va iztirob manbayi bo‘lgan. Shu sabab bilan ham u ustozining vafoti sanasini aniq eslab qolgan.

Mustaqillik yillarida Huvaydo she‘rlari bir qator adabiyotshunos va matnshunos olimlarimiz tomonidan alohida kitob shaklida nashr qilindi. Jumladan, “Rohati dil” dostoni Saidbek Hasanov va Nilufar Juvanmardiyevalar tomonidan 1994-yil “Abdulla Qodiriy” nomidagi xalq nashriyotida nashr qilindi. Shoirning tanlangan asralari “Huvaydo qildi ishq” nomi bilan Ismatulla Abdullayev tahriri ostida 1996-yil “Farg‘ona” nashriyotida nashr ettirildi. Huvaydo devoni 2005-yil “Yangi asr avlodi” nashriyotida bosildi. Qodirqul Ro‘zmatzoda tomonidan 2011-yilda “Navro‘z” nashriyotida “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” she‘riy dostonlari nashr ettirildi.

Shu paytgacha o‘zbek adabiyotshunosligida Huvaydo ijodi yuzasidan bitta ilmiy ish qilingan. Ushbu tadqiqot Abdusalom Xudoyberdiyevning “Xoja Nazar Huvaydo hayoti va ijodi” mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasidir.

Huvaydoning hayoti va ijodi ilmiy jamoatchilikka taqdim qilindi. Lekin Huvaydo ijodini keng qamrovda o‘rganish zamoni yetib keldi. Shoir ijodini ilmning turli jabhalarida o‘rganish o‘zbek adabiyotining XVIII asrdagi ba‘zi bir kemptiklarini to‘ldirishiga shubha yo‘q.

Xojanazar Huvaydo ijodini tadqiq etish XX asr boshlarida rus va nemis sharqshunosligida yangi bosqichga ko‘tarilgan. Shu davrda bir nechta mashhur sharqshunos olimlar uning adabiyotdagi o‘rni va asarlarining ahamiyatini o‘rganish yuzasidan muhim ishlarni amalga oshirishdi.

A.N.Samoylovich, P.A.Falev, M.F.Gavrilov<sup>14</sup>, N.P.Ostroumov kabi rus olimlari va nemis sharqshunosi M.Hartman<sup>15</sup> Huvaydo ijodini turkiy adabiyotning XX asr boshlaridagi rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘lashdi. Ular Huvaydo asarlarining o‘ziga xosligini va so‘fiylik, diniy va ma‘naviy qadriyatlar bilan bog‘liqligini tahlil qildilar. Ayniqsa, sharqshunoslar Huvaydo shaxsini o‘rtaosiyolik adabiyotining yirik vakili sifatida ko‘rdilar va uning asarlaridagi tasavvufiy va hikmatli mazmuni o‘rganishga e‘tibor qaratdilar. Huvaydoning so‘fiylik ta‘limotlari, g‘azallari va musammatlari turkiy (o‘zbek) adabiyoti va madaniyatining rivojiga muhim hissa qo‘shganligini ta‘kidladilar.

M.F.Gavrilovning Toshkentda rus tilida chop etilgan “O‘rta Osiyolik shoir va so‘fiy Huvaydo” risolasi Huvaydoning hayoti va ijodini o‘rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi. Ushbu risolada Gavrilov Xojanazar Huvaydoning tarjimai holi, hayoti va uning adabiyotdagi o‘rni haqida o‘z mulohazalarini bildiradi.

**“Shoir asarlari manbashunoslik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi faslda shoir devonlari, “Rohati dil” dostoni, umuman, ko‘plab she‘riy majmualarining manbashunoslik tahlili kabi masalalar tadqiq qilindi.

Shoirdan hammasi bo‘lib, 351 ta g‘azal, 41 ta to‘rtlik, 28 ta ruboiy, 3 ta muxammas, 3 ta masnaviy, 1 ta musaddas, 1 ta musamman, 1 ta mustazod hamda o‘ttiz bob va “Ibrohim Adham qissasi”dan iborat “Rohati dil” manzumasi yetib kelgan

<sup>13</sup> Мухитдинова Н. Мирхасан Садойй ғазалларида маърифий ғоялар талқини. // АндУ. Илмий хабарлар. – Андижон, 2018. – 3-сон. – Б. 76.

<sup>14</sup> Гаврилов М. Среднеазиатский поэт и суфий Хувайдо. – Toshkent, 1927. – С. 57.

<sup>15</sup> Hartmann M. Der caghataische Divan Huwedas. // Mittheilligen des Seminars fu Orientalischen zu Berlin. – jahrgang V.Berlin, 1902. – B. 44.

bo'lib, shoirning nabirasi Sirojiddin Soqib tomonidan devon holida tartib berilgan. Shundan so'ng ushbu manba kotiblar tomonidan bir necha marotaba ko'chirilgan bo'lib, O'zR FA ShI fondida 14 ta qo'lyozma, 12 ta toshbosma, Hamid Sulaymon fondida esa 7 ta qo'lyozma, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida 2 ta qo'lyozma, Alisher Navoiy nomidagi Miliy kutubxonada 1 ta toshbosma nusxasi saqlanmoqda. O'zR FA ShI fondida 12004-inventar raqam bilan shoir devonining toshbosma nusxasi saqlanadi.

Huvaydo adabiy merosi bo'yicha ma'lumot beruvchi muhim manbalar qatoriga shoirning tiriklik chog'lari hamda vafotidan so'ng tuzilgan majmua, bayoz, tazkira va she'riy to'plamlarni ham kiritish mumkin. Mana shunday mo'tabar manbalardan biri Davlat adabiyot muzeyida 431/VI inv.da saqlanayotgan "Majmuai ash'or" ("مجموعه اشعار") she'riy to'plami bo'lib, unda XVII–XIX asr turkiy (o'zbek) shoirlarining turli janrlardagi she'rlari jamlangan<sup>16</sup>. To'plamda Xolis, Mashrab, Hasrat, Xilvat, Amir va Sayqaliy kabi shoirlarning she'rlari qatorida Huvaydoning g'azal va muxammaslari ham keltirilgan.

Mana shunday "Majmuai ash'or" ("مجموعه اشعار") lardan yana biri ushbu fondning №521/I inv. raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozma manba bo'lib, uning boshqa majmualardan farqli va o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, bu to'plamda faqatgina diniy-tasavvufiy mazmundagi she'rlar berilgan<sup>17</sup>. Majzub (مجنوب), Muhyiddin (محي الدين), Solih (صالح) va Huvaydo (هویدا) ning she'rlari tartib bilan joylashtirilgan.

Shoir she'rlarini o'z tarkibiga kiritgan bayozlardan biri Davlat adabiyot muzeyida №13/II inv.da saqlanmoqda<sup>18</sup>. To'plamda yigirma olti nafar shoirning g'azal, muxammas, musaddas, mustahzod, ruboiy, qit'a, fard, tarix kabi turli janrlardan iborat ijod na'munalari keltirilgan..

Huvaydo devoni o'sha davrning adabiy manbalaridan biri bo'lib, o'ziga xos usulda yozilgan. Ushbu devonning bir qancha qo'lyozmasi O'zR FA ShI fondida saqlanadi. Ushbu devonlarning ko'pchiligi o'zbek va tojik tillarida yozilgan she'rlardan tuzilgan<sup>19</sup>. Devonning hijriy 1246 (milodiy 1830 – 1831)-yilda ko'chirilgan bir qo'lyozma nusxasi №77/V inv.da saqlanuvchi nusxasi shulardan biri bo'lib, tarkibiy jihatdan unchalik to'liq bo'lmasa ham, shoir ijodini o'rganishda muhim manbalardan biridir.

7522-raqamli qo'lyozma "Devoni Huvaydo" (ديواني حويدا) adabiy jihatdan juda qimmatli hamda shoir ijodini o'rganishda muhim manbadir<sup>20</sup>. Devon shoirning turli janrlardagi she'rlaridan tarkib topgan bo'lib, ular orasida g'azallar, mustahzod va murabba' kabi shakllar alohida ajralib turadi.

Xojanazar Huvaydo "Devon"ining 2005-yildagi Toshkentda nashr etilgan versiyasi hamda 2017-yilda qayta chop etilgan to'ldirilgan nashri bilan shoir ijodi

<sup>16</sup> Majmuai ash'or (مجموعه اشعار). Qo'lyozma. – Toshkent: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №431/VI.

<sup>17</sup> Majmuai ash'or (مجموعه اشعار). Qo'lyozma. – Toshkent: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №521/I.

<sup>18</sup> Bayoz (بياض). Qo'lyozma. – Toshkent: O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №13/II.

<sup>19</sup> Қаюмов А. Қўкон адабий муҳити. I китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – Б. 5.

<sup>20</sup> Xojanazar Huvaydo. Devoni Huvaydo (ديواني حويدا). Qo'lyozma. – Toshkent: O'zR FA ShI fondi. Inv. №7522.

bo'yicha ma'lumot beruvchi birlamchi manbalar: qo'lyozma va toshbosmalar bilan taqqoslanganida ular o'rtasida bir qator farqli jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunonchi, "Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasi bilan ushbu nashrlar qiyoslanganida ham o'zgarishlar mavjudligi ko'rildi.

Aytish joizki, "Huvaydoyi Chimyoniy" toshbosmasida keltirilgan she'rlar ichida bir munojot-g'azal va bir tasdis musaddas mavjud. Biroq Xojanazar Huvaydoning 2005-yilda nashr etilgan va 2017-yilgi to'ldirilgan "Devon"ida ushbu she'rlar uchramaydi.

Buxoro toshbosmasida keltirilgan yangi topilma, sakkiz bandli tasdis-musaddasning mavjudligi, alohida ahamiyatga ega. Bu musaddas, Alisher Navoiyning "Shabiston ichra kirgach, sham'larning nurin etting gum, deb boshlanuvchi g'azaliga nazira tarzida bitilgan. Bu topilma, Navoiy g'azali asosida yangi badiiy yondashuvni aks ettiradi.

Ma'lumki, musaddas o'ziga xos she'r shakli bo'lib, unda bir nechta bandlar bo'ladi va har bir bandda qat'iy bir musammat tuzilma bo'ladi. Buxoro toshbosmasida keltirilgan tasdis-musaddasda g'azaldagi baytlar musammatga moslashtirilgan va u sakkiz bandda keltirilgan. G'azalda esa 9 bayt mavjud. Bu farq shundaki, musammat yozilayotganda, ba'zi baytlar "qisqartirilgan", ya'ni g'azaldagi barcha baytlarga musammat bog'lanmagan.

G'azaldagi 4-bayt, ya'ni:

Otang oy-u onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,

Vale husn-u latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um

– musaddasda uchramaydi. Bu bayt, aslida, g'azalning bir qismi bo'lib, tasdis musaddasi shaklida qayta yozilganida, uning o'rniga sakkiz bandli variant keltirilgan.

Bundan kelib chiqadiki, musaddas yaratishda ba'zi baytlar "ayrilgan" yoki "qisqartirilgan". Bu, shoirning o'z badiiy yondashuvini aks ettiradi va ba'zi baytlarni chiqarish orqali yangi, o'zgacha shaklda tasdis yaratishga imkon beradi.

Shu tarzda, Buxoro toshbosmasida keltirilgan tasdis-musaddasning yangi shakli, an'anaviy adabiyot shakllarini yangi tarzda ifodalashning, baytlarning o'zgarishiga qarshi yangilik kiritishga intilishning yaxshi namunasi hisoblanadi. Bu kabi topilmalar, adabiy yondashuvlarning va uslublarning rivojlanishi hamda o'zgarishini tasdiqlovchi qimmatli manba hisoblanadi.

**"Rohati dil" dostonining qo'lyozma nusxalari va matniy xususiyatlari** nomli ikkinchi bobning birinchi faslida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan 14 ta qo'lyozma nusxasi va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan 3ta nusxasi monografik tavsif qilingan.

"Rohati dil" asarining 16 ta qo'lyozma va 1 ta toshbosma nusxasi haqida dissertatsiyada to'liq tavsifiy ma'lumotlar keltirilgan. Qisqacha tarzda quyidagicha izohlaymiz:

**1. №1766 raqamli qo'lyozma.** Uning umumiy hajmi 87 sahifadan tashkil topgan bo'lib, sahifa 13,5×22 o'lchamidadir. Hijriy 1229-yilda ko'chirilgan.

"Rohati dil" asari kitob 1-sahifasining a qismidan an'anaviy basmala bilan boshlangan. Basmaladan so'ng yana an'anaga muvofiq na't qismi keladi. Na'tdan

so‘ng 3-sahifaning b qismidan halifa madhidan avval “در بیانی عایشه صدیقه” (Dar bayoni Oisha siddiqa) keltiriladi va bu bo‘lim 17 baytdan iborat. Undan so‘ng “Ammori bayoni hazrati Umar” nomi ostida 52 baytdan iborat alqov 5-sahifaning b qismida keltiriladi. Asar asosiy matni 7-sahifaning a qismidan “سوزنی ابتداءسنى بیانی بو تور” (So‘zni ibtidosini bayoni bu turur) qizil siyohda yozilgan unvondan boshlanadi.

**2. №11362 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 109 sahifani tashkil etadi, har bir sahifaning o‘lchami esa 12,5×21 santimetr. Qo‘lyozma oxiri mavjud emas.

Kitobning ichki qismi ochilganda, ichki muqovadan keyingi birinchi sahifada qalam bilan yozilgan “Rohati dil” va “Qissasi sulton” degan yozuvlar ko‘zga tashlanadi. Bu yozuvlar ushbu qo‘lyozmada ikkita alohida adabiy asar jamlanganligini aniq ko‘rsatadi.

**3. №9819 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 66 sahifani tashkil etadi, har bir sahifaning o‘lchami esa 14×24 santimetrga teng. Kitobning oxirida ko‘rinib turibdiki, asarning davomiga tegishli sahifalar mavjud emas. Asarning kirish qismi – hamd mavjud emas, matn to‘g‘ridan-to‘g‘ri na‘t qismidan boshlanib, unda “Muhammad ummati bo‘ling...” degan jumlaning uchratish mumkin.

**4. №3430 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozma matnlari qizil rangli ramka ichiga olinib, ikki ustun shaklida joylashtirilgan. Asarning ko‘chirilishi Qo‘qonning shildiroq qog‘oziga qora siyohda, nasta‘liq xatining hunukroq bir uslubida amalga oshirilgan. Ushbu qo‘lyozma nusxasi XIX asrning oxirlarida ko‘chirilgan va mullo Obidboy (ملا عابد باى) tomonidan kitobat qilingan.

Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 274 sahifani tashkil etadi va unda jami uchta alohida asar jamlangan. Ulardan birinchisi “Rohati dil” dostoni bo‘lib, u 90 sahifadan iborat. Qo‘lyozmaning o‘lchamlari 15,5×26 santimetrni tashkil etadi. Har bir asar orasida 2, 3 sahifa bo‘sh joy qoldirilgan bo‘lib, kitobga bosilgan muhr ichida inventar raqami mavjud. “Rohati dil” asari kitob 2-sahifasining a qismidan an‘naviy basmala bilan boshlangan.

**5. №6319 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 168 sahifadan iborat bo‘lib, uning tarkibida “Rohati dil” dostoni bilan birga boshqa asarlar ham mavjud. Kitobda birinchi ko‘chirilgani “Rohati dil” dostoni bo‘lib, u 81 sahifani tashkil etadi. Qo‘lyozmaning sahifa o‘lchamlari 15×26 santimetrdir.

**6. №10585 raqamli qo‘lyozma.** Ushbu qo‘lyozmada uchta alohida asar jamlangan bo‘lib, ularning orasida eng ko‘p sahifani uchinchi asar – “Rohati dil” dostoni egallaydi.

Kitobda ichki unvonlar aniq tarzda ajratib ko‘rsatilgan. Asar qora siyohda nasta‘liq xatida bitilgan bo‘lib, qo‘lyozmaning umumiy hajmi 106 sahifani tashkil etadi, har bir sahifaning o‘lchami esa taxminan 13,5×23,5 santimetrga teng. Qo‘lyozma sahifalarining hoshiyalarida ham ayrim yozuvlar mavjud.

**7. №3696-2 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozma matnlari sahifalarda ikki ustun holida joylashtirilgan. Asar qora siyohda nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 209 sahifani tashkil etadi. 2-sahifadan boshlab ko‘chirilgan “Rohati dil” dostoni 93 sahifadan iborat. Har bir asar orasida 2, 3 sahifa bo‘sh joy qoldirilgan. Qo‘lyozmadagi muhr ichiga esa yana inventar raqam yozilgan. Shuningdek, 57-a

sahifada 1dan 9gacha bo‘lgan baytlar ustidan qizil chiziq tortilgan. Ehtimol, kotib xato ko‘chirgan jumlar ustiga qizil chiziq tortish orqali, o‘quvchiga holatni ma‘lum qilgan.

Qo‘lyozmaning o‘lchami 25,5×14,5 santimetrni tashkil etadi.

**8. №7719 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozma qog‘ozi pastki o‘ng burchak qismi kuygan, natijada qo‘lyozma matnlariga jiddiy zarar yetgan. Ayniqsa, 88-sahifadan 98-sahifagacha bo‘lgan matnlarning ba‘zi baytlari o‘qib bo‘lmas holga kelib qolgan.

“Rohati dil” asari kitob 83-sahifasining a qismidan an’anaviy basmala bilan boshlangan. Basmaladan so‘ng an’anaga muvofiq na’t qismi keladi. 101-a sahifadan: در بياني صفات كتابی مصتفی (Dar bayoni sifoti kitobi musannifi). Asar asosiy matni 102-a sahifadan: در بياني قيامت بو تورور (Dar bayoni qiyomat bu turur) — qizil siyohda yozilgan unvondan boshlanadi.

**9. №5661-2 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 191 sahifani tashkil etadi. Har bir sahifaning o‘lchami 15,5×26 santimetr. Shuningdek, qo‘lyozma hoshiyasiga yozilgan so‘zlar ham mavjud.

Qo‘lyozmada “Rohati dil” dostoni 104-a sahifan boshlab alohida qilib qizil rangda رحمتی کتابی راحتی دل اولی بسم الله الرحمن الرحيم، در بيانی قدرت برک و چيدر jumlasini bilan hamd qismi boshlangan.

**10. №6217 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 126 sahifadan tashkil topgan. Asar 15×25 o‘lchamda.

“Rohati dil” asari kitob 1-sahifasining b qismidan hamd qismning yarmidan boshlangan. Basmala va hamdning ilk sahifalari yoq. So‘ng an’anaga muvofiq 2-b qismidan 20 baytdan iborat “Nati rosuli akram sallohi alayhi vasallam” (نعت رسول اکرم) (صلی الله علیه وسلم) nomi ostida na’t qismi keladi.

**11. №1932 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi va unda “Rohati dil”dan tashqari boshqa asarlar ham mavjud. Ulardan birinchi bo‘lib ko‘chirilgan “Rohati dil” dostoni 89 sahifadan iborat. Qo‘lyozmaning o‘lchami 12×17,5 santimetrdan iborat. Har bir asar orasida muhr ichiga inventar raqam yozilgan. Qo‘lyozma hoshiyasiga yozilgan so‘zlar ham mavjud. Asarda unvonlar yo‘q. 22 va 23-sahifalar Qo‘qon shildiroq qog‘oziga xunuk yozuvda bitilgan. Asar 1304-yilda ko‘chirilgan.

**12. №6874 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 200 sahifadan tashkil topgan bo‘lib, unda “Rohati dil”dan boshqa yana asar ham o‘rin olgan. Qo‘lyozmada “Rohati dil” dostoni 100 sahifadan iborat. O‘lchami 18×22 . Asar 1927-yil Chimyonda ko‘chirilgan.

**13. №1608 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi juda kichik bo‘lib, atigi 39 sahifadan iborat. Bu boshqa nusxalarga nisbatan ancha kam. Qo‘lyozmaning o‘lchami esa 15×25 santimetrni tashkil etadi. Shunday qilib, bu qo‘lyozma boshqa nusxalar bilan mazmunan o‘xshash bo‘lsa-da, hajmining kichikligi va avvalidagi rangli ramkalar bilan ajralib turadi.

**14. №3696-1 raqamli qo‘lyozma.** Qo‘lyozmaning umumiy hajmi 209 sahifani tashkil etadi. Ushbu kitobda 3ta asar mavjud bo‘lib, 1-ko‘chirilgan “Rohati dil” dostonidir. U 42 sahifadan iborat . Qo‘lyozma 25×24,5 o‘lchamidadir.

Ushbu bobning ikkinchi fasli “**Doston qo‘lyozma nusxalarining matniy tadqiqi**” deb nomlanib, unda qiyosiy tekshirish metodining qo‘llanilishi “Rohati dil” dostonining turli nusxalaridagi o‘xshashliklar va farqlarni aniqlash, ularning kelib chiqish manbalarini taxmin qilish, xattotlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolar yoki keyingi davrlarda kiritilgan o‘zgartirishlarni aniqlash imkonini beradi.

“Rohati dil” dostonining o‘n oltita qo‘lyozmasini har tomonlama qiyosiy tahlil qilish orqali biz nafaqat asarning matn tarixini chuqur anglashimiz, balki uning adabiy va madaniy ahamiyatini yanada to‘liqroq baholashimiz mumkin. Bu jarayon filologlar, adabiyotshunoslar va manbashunoslar uchun muhim tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib, dostonning ilmiy nashrini tayyorlash va uni keng o‘quvchilar ommasiga yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ishni dastlab, qo‘lyozma nusxalarning holati (to‘liq yoki noto‘liq ko‘rinishi) haqida tasavvur hosil qilishdan boshlaymiz. Matnlar *to‘liq, nuqsonli, tuzatilgan* (redaksiyaga uchragan) yoki *tugatilmagan* ko‘rinishlarda uchraydi.

Nusxalar orasidan eng to‘liq va kam nuqsonlilari tadqiq uchun tanlab olindi. Ular №1766, №3430, №10585, №7719, №3696-2 raqamli nusxalardir.

Qo‘lyozmalarni o‘zaro qiyoslashning dastlabki bosqichi sifatida boblar bo‘yicha tahlil o‘tkazilgani muhim ahamiyatga ega. Chunki dostonning turli nusxalarida ayrim boblarning mavjudligi yoki yo‘qligi asarning hajmi, tuzilishi va hatto mazmuniga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Misol uchun, jannat tarifi bobining №1766, №3430, №10585, №7719 kabi raqamlangan nusxalarda mavjudligi, ammo №3692-2 raqamli qo‘lyozmada tushirib qoldirilgani bu bobning dostonning an‘anaviy tarkibiga nisbatan o‘zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ehtimol, bu bob keyinchalik ayrim kotiblar tomonidan qisqartirilgan yoki o‘zgartirilgan bo‘lishi mumkin.

Namoz masalasi bobining №7719 raqamli qo‘lyozmada yo‘qligi, ammo №6217, №3696-2 kabi raqamlangan nusxalarda mavjudligi ham xuddi shunday holatni aks ettiradi.

Ota-onani rozi qilish masalasi bobining №1766, №11362, №9819 raqamli qo‘lyozmalarda uchramasligi, lekin №3696-2, №7719 raqamli nusxalarda mavjudligi ham diqqatga sazovor. Bu holat ayrim axloqiy-didaktik mavzularning dostonning turli nusxalarida turlicha aks etganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, asar nusxalari orasida mavzu nomlari berilishida jumla oxirida keluvchi so‘zlardagi farqlar: bu turur, bayozi, dar, hikoyati kabilar ham ko‘zga tashlanadi.

Quyidagi qiyosni morfemik jihatidan amalga oshirdik.

a) Jonalish kelishik qoshimchasi “-ga” – №3696-2 da “كا” tarzida “ك” bilan, №6217 da “غ” bilan, №1766 da “ه” bilan, №7719 da “ك” bilan, №3430 da “غ” bilan kelgan. Masalan, №1766 raqamli nusxada “سنا و حمد خالقی خوبونغ” misrasida kelgan “خوبونغا” so‘zidagi “غا” №3696-2 da “خوبونكا” tarzida “كا” bilan yozilgan.

Bundan tashqari “-gay” qo‘shimchasining qo‘llanishida ham shu holatni kuzatish mumkin. №3696-2 da “كاي” tarzida “ك” bilan, №1766, №7719 da “غ” bilan kelgan. Masalan, №1766 da:

ركوع ايلب الار ايكي بوكولغاي

كناهی ساچینڭ سانچە بولغای

№3696-2 nuxxada esa:

ركوع ايلب آلا ر ايكي بوكولكاي  
كناهی ساچینڭ سانچە بولكاي

tarzidagi baytlar keladi.

Shu bilan birga – gan qo‘shimchasining qo‘llanishida ham yana shu holatni ko‘rish mumkin. №1766 va №3696-2 raqamli nusxalarda كان → “gan”, boshqalarida: غان → “g‘on” bo‘lib kelgan.

b) Qaratqich kelishigi /-ning/ o‘rnida /-ni/ qo‘llangan o‘rinlar ham ba’zi nusxalarda keladi. Shu bilan birga, /-ning tushib qolgan joylar ham bor. Masalan, “Qiyomatni bayoni bu turur” №3696-2 da “-ning” o‘rniga “-ni” ishlatilgan, №1766 da ham “Namozga muvakkal farishtalarni bayoni bu turur” nomli bobida “-ning” o‘rniga “-ni” ishlatilgan. Bu holat, asosan, shu ikki qo‘lyozmada uchraydi. Qolgan qo‘lyozmalarda deyarli yo‘q.

d) So‘z oxiridagi [a] tovushining ifodalanishida ham farqlar ko‘rinadi, ya’ni u “o” yoki “i” harflari bilan yozilgan. №3696 “o”, №1766 da “o” ham “i” ham kelgan , №6217 “o”, №7719da “o” bilan, №3430 “o” ham “i” ham kelgan.

*Turara Bandai momin namoza*

*Qilib toat xudoyi banamoza.*

Navbatdagi qiyosni leksikologik jihatidan amalga oshirdik.

a) Juda ko‘p o‘rinlarda nusxalar orasida so‘z almashish, ya’ni bir so‘z o‘rniga uning sinonimi qo‘llanganligi guvohi bo‘ldik. Ichki unvonda “kun” sozi o‘rnida №1766 da “ro‘z” ishlatilgan. “Jannat” so‘zi №1766 “behisht”, №3430 da “ravza”, №7719, №3696-2, №6217 da “ravzah” tarzida kelgan.

Bundan tashqari, asarda kelgan “dar bayoni sharofati namoz bu turur” bobidagi payg‘ambar va Salmon roziyallohu anhu suhbatidagi “o‘xshatding” so‘zi nusxalarda turlicha ko‘chirilgan. №3696-2 da “o‘xshating”, №1766da “o‘xshatding”, №7719da “o‘xshatdung” tarzida yozilgan.

Shu bilan birga so‘zlarning o‘rni almashib kelish holati ham kuzatilgan. Masalan,

*Qiyomat xotiring‘a keldi darhol- №6217,*

*Qiyomat keldi xotiramga darhol-№1766*

– انينك الده اوچ مينك ملك كيلكاي №7719

– انينك اوچ مينك ملك الده كيلكاي №1766, №3696-2

tarzidagi holatlar ko‘plab topiladi. Quyida nusxalar orasidagi shu va shu kabi shakllarga misollar keltirildi:

خبر دا كيلميش اول ناكاه قيامت

بيغميش انده تورليك كوپ علامت

Ushbu baytda ostiga chizilgan so‘z №3696-2 nuxxada روز shaklida , №1766, №7719 nusxalarida xuddi shu ناكاه so‘zi bilan kelgan.

كي اسرافيل داميده ايلاكاي سور

چيقوب ترغاي خلائق بر سري كور

Ushbu ostiga chizilgan so‘zlardagi qo‘shimchalarda o‘zgarishlar kuzatiladi. Jumladan, ايلاكاي №7719, 1766 nusxalarida, №3696-2 da esa ايلاغاي shaklida, ترغاي

soʻzi esa xuddi shu holatda №1766, da, ترکاي boʻlib №3696-2 da, ترادورلار shaklida №7719 raqamli nusxada kelgan.

Nusxalar orasida **koʻchirilish jihatidan farqlar** mavjud:

a) – “پ” va “ي” harf birikmasidagi besh nuqta oʻrniga uch nuqta bilan kifoyalangan. Masalan: “پیغمبر” (paygʻambar) oʻrnida “پیغمبر” (№1766, №3696-2, №6217, №1799, №3430); bunday joylar qoʻlyozma nusxada koʻplab kelgan.

b) - arabcha soʻzlardagi “ث” va “س” yozilishi. “Safar qildi banogoh uch birodar” jumlasidagi sin qoʻlyozmalarda turlicha kelgan. №1766 da “س” bilan, №3430da “ث” bilan, №3696-2 da ham “ث” bilan, №6217da “س” bilan, №7719da “س” bilan kelgan. Lekin “ث” bilan kelgan qoʻlyozmalarda uch nuqta harf ustiga emas, ostiga yozilgan.

*Rivoyat ayladilar ibn abbos*

*Rosuli olamindin zubdain nas*

Ushbu jumladagi sin qoʻlyozmalarda turlicha kelgan. №1766 da “س” bilan, №3430da “ث” bilan, №3696-2 da ham “ث” bilan, №6217da “س” bilan, №7719da “س” bilan kelgan. Lekin “ث” bilan kelgan qoʻlyozmalarda uch nuqta harf ustiga emas, ostiga yozilgan.

d) “Rivoyat ayladilar abu hurayra” jumlasidagi “abu” soʻzidagi alif bazi qoʻlyozmalarda bor, bazisida yoʻq. №6217da ابو tarzida, №1766da بو, №3696-2 da ham بو, №7719da ابو tarzida kelgan.

Yana “barisi aydilar bu soʻzni maqul” jumlasidagi “barisi” soʻzida №1766 da alif bor va togri, №6217da birisi bolib alif yoq, №3696-2 da “alar ham aydilar bu soʻzni maqul tarzida “alar” soʻzi bilan ifodalangan, №3430da birisi boʻlib alifsiz kelgan, №7719da ham birisi tarzida.

Uchinchi bob **“Rohati dil” dostonining badiiyati**” deb nomlanib, uning 1-faslida asar tuzilishiga doir tadqiq amalga oshirilgan.

Doston tarkibiy tuzilishiga koʻra, 30 bobdan va Ibrohim Adham hikoyatidan iborat. Asar anʻnaviy tarzda – Allohga hamd va paygʻambarlarga naʼt bilan boshlangan. Keyin chahoryorlar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alining ibratli faoliyatlari bayoni berilgan. Shariat qonun – qoidalari, talablari sharhlangan. Shundan soʻng bir qancha pandnoma – hikoyatlar keltirilgan<sup>21</sup>.

Yuqoridagi kabi maʼlumotlarni adabiyoti tarixi kitoblarida uchratishimiz mumkin. Asar ichki tuzilishini yanada aniq bilish uchun qoʻlyozma nusxalarga ham murojat qilish maqsadga muvofiq boʻladi. “Rohati dil” asari tarkibi, tuzilishi, sujet koʻlamini tahlil qilishni qoʻlyozma nusxalar orasidagi 6217 raqamli qoʻlyozma misolida koʻrsak :

1. “Nati rosuli akram sallohi alayhi vasallam”.
2. “Bayoni nuri rasuli akram sallohi alayhi” .
3. “Hazrat Jibril rosuli alayhis salomga tobut keltirgoni”.
4. “Bayoni tasnifi sababi kitob”.
5. “Bayoni qiyomat”.
6. “Bayoni mazammati dunyo”.
7. “Bayoni fazilati zamon”.
8. “Bayoni ravzah”.

<sup>21</sup> Adizova I. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 121.

9. "Bayoni sifati ravzah".
10. 34-a sahifada "Bayoni sifati behisht".
11. "Bayoni fazilati namoz".
12. "Hikoyat" (حكايت).
13. "Bayoni fazilati mohi sharif ramazon".
14. "Bayoni fazilati quron o'qimoq".
15. "Bayoni amali riyo".
16. "Bayoni haq va al-din".
17. "Bayoni kasofati benamoz".
18. "Bayoni haqqi shuhur".
19. "Fazilati haqqi shuhur".
20. "Bayoni kasofati chogir".
21. "Bayoni alomati behisht va dozah".
22. "Bayoni g'iybat" (بيان غيبات).
23. "Bayoni kasofati zino".
24. "Bayoni sudxo'r".
25. "Bayoni fazilati zakot".
26. "Bayoni fazilati xulqi xush".
27. "Bayoni vafoti pir rasuli akram sollallohu alayhi vasallam".
28. "Alomati nishona ro'za".
29. "Bayoni qissasi Sulton Ibrohim Adham rohmatallohi alayh".
30. "Hotimatul kitob".

"Rohati dil" dostoni boblari har bir nusxada turlicha kelgan. Bu holat dostonning ko'chirilishdagi an'anaviy tarkibiga nisbatan o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ehtimol, bu boblar hajmi keyinchalik ayrim kotiblar tomonidan qisqartirilgan yoki o'zgartirilgan bo'lishi mumkin.

"Rohati dil" asari an'anaviy dostonlar kabi asar "Xalloqu jahonga hamd", "Na'ti Rasululloh (s.a.v.)" bilan boshlanib, so'ngra "Hikoyati tobuti Jabroyil alayhis salom" keladi.

Ushbu hikoyat bayonidan so'ng, Abubakr Siddiq, Umar Foriq, Usmon Zinnurayn, Hazrati Ali va uning o'g'illari – Imom Hasan va Imom Husayn haqida qisqa bayonnomalar keltirib, ular hayotining barcha mo'minlarga ibratli bo'lganini eslatadi. So'ngra yuqorida zikr qilingan "Dar bayoni kitob" bobidan so'ng qiyomat kuni barcha o'z gunohlari uchun mas'ul mazmunida ikki bob bayon qilinadi. So'ngra safarda uch qardosh "nafsi shaytoniy"ga mag'lub bo'lib xalok bo'lganlari haqida maxsus hikoya aytiladi. Doston shu kabi diniy rivoyat va hikoyatlar majmuasidangina iborat emas, balki unda sofdillik, halollik va insoniylikni tarannum etgan qismlar ham anchagina.

Asar maxsus yaxlit bir syujet va kompozitsiya chiziqlariga tizilmagan bo'lsa-da, hikoyatlardagi o'zaro bog'lanish, aniqrog'i, har bir rivoyat mazmunning uyg'unligidan dalolat beradi.

Bobning ikkinchi fasli **"Rohati dil" dostonining badiiy unsurlari** deb nomlanadi.

“Rohati dil” asari adabiy tur nuqtai nazaridan liro-epik turga mansub doston bo‘lib, shakliy tuzilishiga ko‘ra manzuma janrida bitilgan.

Xo‘jamnazar Huvaydoning “Rohati dil” dostoni janr jihatidan juda qatlamli tuzilgan bo‘lib, unda bir nechta adabiy janrlar uyg‘unlashgan. Quyida ba‘zilariga to‘xtaldik:

